



# MAVZU:Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish va qo'shib yozish

**O'qituvchi: Ruzikulova G. F.**



## **CHIZIQCHA BILAN YOZISH**

**Juft yoki takror soʻzlarning oʻrtasida chiziqcha ishlatiladi:**  
***ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, qingʻir- qiyshiq; togʻ-togʻ,***  
***sekin-tez kabi.***

**Juft soʻzlar orasida -u, -yu yuklamalari ishlatilsa, ular**  
**birinchi soʻzdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi:**  
***erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa kabi.***



*Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri*  
kabi **kuchaytirma sifatlar** chiziqcha  
bilan yoziladi.

*Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam*  
singari o'rtasida *-ma* yoki *-ba*  
qo'shimchalari kelgan so'zlar  
chiziqcha bilan yoziladi.



***-mi, -gina (-kina,-qina), -oq (-yoq)***  
**yuklamalaridan tashqari barcha**  
**affiks **yuklamalar** chiziqcha bilan**  
**yoziladi: *sen-chi, biz-a, keldi-da,***  
***ukasi-ku* kabi.**



**Tartib sonlar arab raqamlari bilan  
yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: *26-uy,  
6-xona, 2001-yil, 8-mart.*  
Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha  
ishlatilmaydi: *XXI asr, X bob.***



## AJRATIB YOZISH

Qo'shma fe'l, shuningdek,  
**ko'makchi fe'li** qo'shilmalar  
doimo ajratib yoziladi: *kirib  
chiqdi, olib keldi, oshkor etdi,  
aytib qo'ya qoldi, o'qib chiqdi  
kabi.*



TIAME

***Har, kech, bir, u, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi: har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o'sha joyda, hamma vaqt kabi. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi: Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon.***



***Eslatma:***  
***bilan va uchun***  
**ko'makchilarining qisqargan *la***  
***va chun* shakli chiziqcha bilan**  
**yoziladi: *onam-la, sen-chun***  
**singari.**





TIAME

**Sifatning orttirma darajasini yasovchi *to‘q, och, tim, tang, jiqqa* kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *tim qora, och ko‘k, to‘q sariq* kabi.**

**Qo‘shma sonlar ajratib yoziladi: *o‘n to‘qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi* va hokazo.**



*Yildan yilga, kundan kunga kabi  
ko‘rinishdagi birliklar ham ajratib  
yoziladi.*

*Nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi  
bedavo kabi izofali birikmalar ham  
ajratib yoziladi.*



TIAME

## **QO'SHIB YOZISH**

***Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi soʻzlar yordamida yasalgan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi: oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qoʻymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bugʻdoyrang va h.k.***



**-r, -ar, -mas** qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas* kabi. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar va sifatlar qo'shib yoziladi: *toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq singari.*



TIAME

Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljallanganligi kabi ma'nolarni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

*ko'ksulton,*

*oqbosh*

*achchiqtosh*

*ko'zoynak*

*suvilon kabi.*



TIAME

**Ikkinchi qismi turdosh ot yoki *obod* soʻzi bilan yasalgan joy nomlari **qoʻshib** yoziladi: *Oqtepa, Uchqoʻrgʻon, Davlatobod, Xoʻjaobod* kabi, lekin *Markaziy Osiyo, Koʻhna Urganch, Gʻarbiy Yevropa* kabi joy nomlari **ajratib** yoziladi.**



**Ruscha, baynalmilal  
yoki tarjima qilingan  
qo'shma so'zlar qo'shib  
yoziladi: *telestudiya,  
fotoapparat,  
radioto'lqin, etektrarra  
kabi.***



**Qisqartma soʻzlar  
har doim qoʻshib  
yoziladi: OʻzMU,  
ToshDPU.**





**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!**